O‘ZBEKISTON SHAHARLARIDA YO‘L HARAKATINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI

Baxromjonova Dilnozaxon Muhammadsodiq qizi
Andijon davlat texnika instituti, Andijon, O‘zbekiston
E-mail: dilnozabaxromjonova6@gmail.com
Tel.:+998888377720

Annotatsiya: Ushbu maqolada yirik shaharlarda yo‘l harakatini tashkil etishdagi dolzarb muammolar va sodir bo‘lish ehtimolliklari tahlil qilingan. Muammolar sifatida transport tirbandliklari, noto‘g‘ri avtoturargohlar, jamoat transporti tizimidagi kamchiliklar, yo‘l harakati qoidalariga amal qilmaslik, shuningdek, yo‘l infratuzilmasining eskirganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu muammolarni hal etish yo‘llari sifatida intellektual transport tizimlarini joriy etish, jamoat transportini modernizatsiya qilish, avtoturargoh infratuzilmasini yaxshilash taklif etiladi. Natiada, transport boshqaruvini takomillashtirish O‘zbekiston shaharlarida barqaror harakatlanishni ta’minlash va aholining hayot sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Yo‘l, yo’l infratuzilmasi, transport tizimlari, mobillik, shahrlashtirish, avtomobil qo‘yish joyi.

Аннотация: В данной статье анализируются актуальные проблемы и вероятности возникновения проблем в организации дорожного движения в крупных городах. В качестве проблем указаны транспортные пробки, неправильные парковки, недостатки в системе общественного транспорта, несоблюдение правил дорожного движения, а также устаревшая дорожная инфраструктура. В качестве путей решения этих проблем предлагается внедрение интеллектуальных транспортных систем, модернизация общественного транспорта, улучшение инфраструктуры парковки. В результате, совершенствование транспортного управления играет важную роль в обеспечении устойчивого движения в городах Узбекистана и повышении качества жизни населения.

Ключевые слова: Дорога, дорожная инфраструктура, транспортные системы, мобильность, урбанизация, парковка.

Abstract: This article analyzes current problems and the likelihood of their occurrence in the organization of traffic in large cities. Problems include traffic congestion, improper parking, shortcomings in the public transport system, non-compliance with traffic rules, and obsolescence of road infrastructure. As ways to solve these problems, it is proposed to introduce intelligent transport systems, modernize public transport, and improve parking infrastructure. As a result, the improvement of transport management plays an important role in ensuring stable

ISSN 3030-3907

movement in the cities of Uzbekistan and improving the quality of life of the population.

Keywords: Road, road infrastructure, transport systems, mobility, urbanization, parking.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan so‘ng iqtisodiy o‘zgarishlar hayotga izchil joriy etila boshladi. Chunonchi, avtomobil ishlab chiqarish sanoati yo‘lga qo‘yildi, yo‘l qurilish sohasi jadallashtirildi, shuningdek, chet el davlatlari bilan savdo aloqalari yuqori darajaga ko‘tarildi. Bu esa, tabiiy ravishda Respublika avtomobil yo‘llarida harakat miqdori yildan-yilga ortishiga olib keldi. Hozirgi va istiqboldagi asosiy masalalardan biri avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlashdan iborat bo‘lib, unda yo‘l-transport hodisalari, ularda halok bo‘luvchilar va tan jarohati oluvchilar sonini, ko‘riladigan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy zararlarni kamaytirishga qaratilishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–27-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, yo‘l harakatini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, avtomobil yo‘llari infratuzilmasini rivojlantirish va yo‘l harakati ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida [1]:

Yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo‘llarda avariya va o‘lim holatlarini keskin qisqartirish, shu jumladan, harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta’minlash maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi 2022-2026 yillar davomida respublika hududida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturi (keyingi o‘rinlarda – Dastur) ilovaga muvofiq tasdiqlandi. Dasturda quyidagi vazifalar belgilani berildi:

-Avtomobil yo‘llari infratuzilmasini kompleks takomillashtirish;

-Avtomobil yo‘llarida harakatni boshqarish tizimini raqamlashtirish;

-Jamoat transportini rivojlantirish va raqamlashtirish;

-Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish, bolalarga yo‘l harakati qoidalarini amaliy o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish;

-Haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda transport vositalarining texnik holati ustidan nazoratni kuchaytirish.

Dasturda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha aniq mexanizmlarni nazarda tutuvchi manzilli chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan “yo‘l xaritasi”ni har yili ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun Yo‘l harakati xavfsizligini

ISSN 3030-3907

ta’minlash bo‘yicha respublika maxsus komissiyasiga kiritish, har chorakda yo‘llarning holati va mavjud infratuzilma, avariya o‘choqlari, qoidabuzarliklar ahvolining tahlili asosida, harakat xavfsizligi, transport va yo‘l sohalariga mas’ul idoralar rahbarlari faoliyatini tanqidiy o‘rganib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga muhokama qilish uchun kiritib borsin belgilab berildi.

Bundan tashqari, 2025 yil 20 fevral kuni “Yo‘l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (O‘RQ-1033-son) qabul qilindi [2].

Avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini tashkil etish bugungi kundagi muhim muammolardan biriga aylanib bormoqda. Avtomobilning atrof-muhitga yetkazadigan zararlar miqdori kundan-kunga oshib bormoqda, eng asosiysi esa, yo‘llarda sodir etilayotgan yo‘l-transport hodisalari natijasida ko‘plab odamlarning jabr ko‘rishlari va hayotdan ko‘z yumishlaridir. Yo‘l-transport hodisalarining oldini olish uchun ko‘rilayotgan qator tadbirlarga qaramasdan, ularning miqdori kamayishiga erishib bo‘lmayapti. Bu esa, yo‘l harakati xavfsizligi muammolariga o‘ta jiddiy yondashish zarur ekanligini mutaxassislar oldiga vazifa qilib qo‘ymoqda. Harakat xavfsizligini ta’minlash uchun unga ilmiy yondashish, uning barcha serqirra jarayonlarini tahlil etish zarur [3]. Buning uchun yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislar yo‘l harakatining asosiy ko‘rsatkichlarini, yo‘llardagi sharoitlarning transport oqimlari harakatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishlarini, transport oqimlarini boshqarishning texnik vositalari orqali yo‘l harakatini boshqarish bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishlari zarur. Bulardan tashqari, yo‘l harakati bo‘yicha mutaxassislar avtomobil yo‘llarida sodir etilayotgan yo‘l-transport hodisalarini atroflicha o‘rganishlari uchun ularning turlari, miqdorlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari, yo‘l-transport hodisalarini yig‘ish, ularni hisobga olish tartiblarini va ularni tahlil etish usullarini mukammal bilishlari zarur [4].

Bugungi shiddatli zamonda transport vositalari kundalik hayotimizning eng yaqin ko‘makchisi bo‘lib qolmoqda. Yurtimizda aholi turmush farovonligining yuksalishi, ayniqsa, avtomobilsozlik sanoati izchil rivojlanib borayotgani natijasida shaxsiy transport vositalari soni sezilarli darajada oshib, yo‘llarda avtotrasportlar qatnovi ko‘paygan. Bu esa, tabiiyki, harakatlanish xavfsizligini ta’minlash, samaradorligini yanada oshirishni taqozo etadi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatda barcha sohalarda, jumladan, yo‘l harakati xavfsizligi sohasida ham yo‘l harakati xavfsizligi ishtirokchilarining

ISSN 3030-3907

huquq va majburiyatlari, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalarini takomillashtirish fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish va inson hayotini saqlab qolishdek ezgu maqsadga xizmat qiladi [5].

Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili qariyb 1,4 millionga yaqin odam yo‘l transport hodisalari qurboniga aylanadi. O‘zbekistonda birgina 2023-yilda mamlakatimizda 10311 ta yo‘l-transport hodisalari sodir etilgan bo‘lib, buning oqibatida 2235 nafar insonlarning vafot etish bilan yakunlangan.

Mamlakatimizda avtomobillashtirishning o‘sishi yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash borasida ijobiy ishlar olib borilayotganiga qaramay, mavjud vaziyat bu boradagi ishlarimizni takomillashtirishni, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish va joriy etish hamda harakatlanish xavfsizligini ta’minlash uchun malakali haydovchilar tayyorlashni taqozo etmoqda [6].

Haydovchi o‘ziga tegishli transport vositasini boshqarish jarayonida avtomobil yo‘llarida boshqa transport vositalarining uzluksiz harakatlanishini ta’minlashi, yo‘l harakati ishtirokchilari bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi, yo‘l harakati qoidalariga rioya etishlari kerak. Yo‘llarda harakatlanish xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yo‘llarda harakatlanish qoidalari barcha shaxslar va fuqarolar uchun tegishli bo‘lgan majburiy talablarni o‘z ichiga olib, fuqarolarlarning xavfsizligi va sog‘ligini ta’minlashga qaratilgan [7].

O‘zbekiston Respublikasi IIV JXD Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda 2022 yilning 12 oyi maboynida 10528 ta yo‘l-transport hodisalari sodir etilgan bo‘lib, buni oqibatda 2389 fuqarolar hayotdan ko‘z yumgan, 9707 fuqaro tan jarohati olgan. 2023 yilning o‘tgan 12 oyi davomida esa 10311 ta yo‘l-transport hodisalari sodir etilgan bo‘lib, ushbu hodisalarda 2235 nafar fuqaro vafot etgan, 9168 nafar fuqarolar turli darajadagi tan jarohatlarini olgan [8].

Tadqiqot metodikasi

Keyingi yillarda mamlakatimizda yo‘l harakati qoidalarini yanada takomillashtirish, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish hamda yo‘l harakati xavfsizligini nazorat qilish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, yo‘l harakati xavfsizligi tizimini takomillashtirishga, shu jumladan haydovchilar va piyodalarning yo‘l harakati qoidalariga rioya etish madaniyatini oshirishga, haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirishga, shuningdek yo‘l harakatining tashkil etilishini to‘liq raqamlashtirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi [9].

ISSN 3030-3907

Shu bilan birga ayrim haydovchilar tomonidan yo‘l harakati qoidalariga rioya etmaslik natijasida yo‘l-transport hodisalari soni ortib bormoqda. Jumladan, transport vositasini mastlik holatida boshqarish tufayli haydovchi o‘zining harakatini anglay olmasligi natijasida og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalari sodir bo‘lmoqda.

Ayrim haydovchilar tomonidan yo‘l harakati qoidalariga bepisandlik bilan qarash, transportni boshqarish madaniyatiga amal qilmaslik, yo‘l harakatining boshqa ishtirokchilariga nisbatan hurmatsizlik, transport vositasini keskin boshqarish hamda boshqa harakatlarda ifodalanadigan “agressiv boshqarish” holatlari ko‘paymoqda.

Mazkur Qonun bilan ayrim qonun hujjatlariga yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan, shu jumladan, qo‘pol qoidabuzarliklar sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo muqarrarligini ta’minlash, transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxs tomonidan transport vositalarini takroran boshqarganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilash, yo‘l harakati qoidabuzarliklari bo‘yicha hisoblanadigan jarima ballari belgilangan miqdordan oshganligi uchun ma’muriy jazo qo‘llash, shuningdek siqilgan tabiiy gazda, suyultirilgan neft gazida ishlaydigan transport vositalari ishtirokidagi hodisalar bo‘yicha alohida moddalarda ma’muriy va jinoiy javobgarlikni belgilashni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda [10].

Natija va muhokama.

O‘zbekiston shaharlari, ayniqsa yirik shaharlarda (masalan, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Andijon) yo‘l harakatini tashkil etish borasida bir qator muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolar aholi sonining ortishi, avtomobillar sonining ko‘payishi, infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani va zamonaviy boshqaruv tizimlarining yetishmasligi bilan bog‘liq.

Quyida asosiy muammolar va ularni hal etish yo‘llari keltirilgan. Asosiy muammolar quyidagilarni tashkil etadi: Tiqinlar (tirbandliklar):

Katta shaharlarda rusumli soatlarda avtomobil tirbandliklari keskin ko‘paymoqda. Bu esa ko’pkab tirbandliklarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Yo‘l o‘tkazuvchanlik past, ayrim ko‘chalarda yo‘l harakati zichligi juda yuqori. Ya’ni sutkaning pik vaqtlarida yo’llarda judayam ko’p avtomobil o’tishi tufayli yo’ o’tkazuchchanligi pat bo’lganligi uchun transport oqimining zichligi yanayam ortib borishini guvohi bo’lamiz.

Yana bir muhim ma’lumot keltirib o‘tamiz ya’ni 2024 yil yakuni bo‘yicha Andijon shahrida sodir etilga yo‘l transport hodisalari tahlili va sabablari keltirib o‘tganmiz:

ISSN 3030-3907

Haydovchilarning aybi bilan sodir bo`lgan 394 ta qoidabuzarliklar natijasi bo`yicha:

- 176 ta (23,0%) holatda tezlikni belgilangan me'yoridan oshirilishi,
- 61 ta (7,9%) holatda qarama-qarshi yo`nalishga chiqish,
- 33 ta (4,3%) holatda yo`nalishni o`zgartirish,
- 21 tasi (2,7 %) charchoqlik, rulda uxlab qolishlik,
- 6 tasi (0,7 %) yo`l belgilariga amal qilmaslik,
- 59 tasi (7,7 %) oraliq masofani saqlamaslik,
- 29 tasi (3,7 %) Svetoforga rioya qilmaslik,
- 7 tasi (1,0%) to`xtash va to`xtab turish,
- 2 tasi (0,2%) mast xolda boshqarish natijasida sodir bo`lgan.

Noto‘g‘ri avtoturargohlar (parking) Markaziy hududlarda avtomobil qo‘yish uchun maxsus joylar yetarli emas. Shu sababli ham ko'plab transport vositalarining haydovchilari yo;lning chetiga transport vositasini qo'yish holatlari yuzaga kelib, buning natijasida tirbandliklar yo'l-transport hodisalari yuzaga kelmoqda.Ko‘chalarda noto‘g‘ri to‘xtagan mashinalar harakatga to‘sqinlik qiladi.Jamoat transporti muammolari: Avtobus va marshrutkalar soni yetarli emas yoki ularning sifati past.Harakat jadvali va yo‘nalishlar aholi ehtiyojiga to‘liq mos emas. Jamoat transporti muammolari yuzaga kelganligi sababli yo'llarda taxi xizmati ko'payib harakat jadalligini oshirib bormoqda.Yo‘l harakati qoidalariga amal qilmaslik:Haydovchilar tomonidan tezlikni oshirish, qizil chiroqda o‘tish, noto‘g‘ri parkovka kabi holatlar ko‘p uchraydi. Piyodalar ham yo‘l harakati qoidalariga doim ham amal qilmaydi. Ayniqsa yo'l qoidalarini bilmaslik ham ko'plab muammolarga sabab bo'lmoqda. Ayrim yo‘llar ta'mirtalab, asfalt sifati past. Svetoforlar va yo‘l belgilarining yetishmasligi. Yo'llar talabga javob bermaganligi sababli yo'llarda tirbandliklar yuzaga kelmoqda.

Muammolarni hal etish yo‘llari:

Intellektual transport tizimlarini (ITS) joriy etish Svetoforlarni aqlli tizimlar bilan almashtirish (trafik zichligiga qarab ishlaydigan).Shahar transportini real vaqtda boshqarish markazlarini yaratish. Ya'ni hozirgi zamonaviy tuzilmalardan samarali foydalanib harakatni tashkil etish orqali ko'plab muammolar hal qilinar edi. Jamoat transportini rivojlantirish:Yangi avtobus yo‘nalishlarini ochish, ekologik toza transport (elektrobus, metro) sonini oshirish.Harakat jadvalini raqamli tizimlar orqali avtomatlashtirish. Avtoturargohlar infratuzilmasini yaxshilash Ko‘p qavatli avtoturargohlar qurish.Avtomobil to‘xtashni raqamli tizimlar bilan nazorat qilish (mobil ilovalar orqali to‘lov,joy band qilish). Yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilishYo‘llarni kengaytirish, yangi estakada va aylanma yo‘llarni qurish.Svetoforlar va yo‘l belgilarini modernizatsiya

ISSN 3030-3907

qilish.Qonunlarni kuchaytirish va targ‘ibot Yo‘l harakati qoidabuzarlari uchun jazo choralarini kuchaytirish (ayniqsa telefon ishlatish, signal berish, xavfli haydash. Maktablarda, universitetlarda yo‘l harakati madaniyatini o‘rgatish.Velosiped va piyoda infratuzilmasini rivojlantirish Maxsus velosiped yo‘laklari va piyodalar yo‘laklarini kengaytirish.Yashil hududlarda piyoda yurish uchun qulay sharoit yaratish.

Xulosa

O‘zbekiston shaharlarida yo‘l harakatini tashkil etishda asosiy muammolarni ko‘rib chiqdik bular; yo‘l infratuzilmasining yetishmasligi, tirbandlik, transport vositalarining ko‘pligi va boshqaruv tizimidagi zaifliklardir. Shuningdek, piyodalar uchun qulay sharoitlar yaratish ham muhimdir. Ushbu muammolarni hal etish uchun yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy svetofor va nazorat tizimlarini joriy etish, jamoat transportini takomillashtirish va yo‘l harakati qoidalarini qat’iy nazorat qilish zarur. Shuningdek, shaharsozlik va transport rejalashtirishda innovatsion yechimlar qo‘llanilishi, aholi ongini oshirish ishlari olib borilishi lozim. Bu yo‘l harakati xavfsizligini va shahar hayot sifatini yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: “O`zbekiston” NMIU, 2018. – 80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi 172-sonli qarori. -148 bet.Azizov Q.H.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”2022-yil 4-apreldagi PQ-190-son qarori. 28-bet.
4. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. Darslik, Toshkent: 2009, -267 bet.
5. Azizov Q.H. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. Darslik, Toshkent: 2004, -182 bet.
6. Qodirov S.M., Nazarov K.M. Yo‘l-transport hodisalari tahlili. O‘quv qo‘llanma, Toshkent: 2002, -84 bet.
7. Azizov Q.H. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. O‘quv qo‘llanma Toshkent: 1999, -113 bet.
8. А.Ю. Якимов, Е.А. Смирнов, Организация и безопасност дорожного движения в крупнқх городах (проблемы и пути их решении). «Организация и безопасност дорожного движения в крупнқх городах» сборник докладов седмой международной конференций; Санкт–Петербург, 21-22 сентября 2006.-514 .

ISSN 3030-3907

9. O.K. Odilov, G.I. Mamaev, F.I. Isroilov, “Traffic safety in road transport. Ecological education and ecological culture of the population // The III international scientific conference on February 25-26, 2015.
10. I.Sodiqov, A.Artiqov, R.Qodirova, K.Azizov, A.Eshonkulov, Avtomobil yo’llarida harakat xavfsizligini ta’minlash bo’yicha ko’rsatmalar. Toshkent, MSHN 25-2005

ISSN 3030-3907